

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРSLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIM SXEMALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti*

Toshtemirova Umida Qobil qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: toshtemirovau5@gmail.com

Saydullayeva Marjona Shodilbek qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: sodilbekmamatov@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarida o'quvchilarga mavzularni qiziqarli va sifatli o'qitishda sxemalardan samarali foydalanish usullari tushuntirilgan. Shuningdek, o'quvchilarni texnologiya faniga bo'lgan qiziqishlari, layoqadi, kreativ g'oyalari, ijodiy fikrlashi, tasavvurga ega bo'lishi, mustaqil ishlarni bajara olishida turli xildagi mavzularni tezroq o'rganishlari uchun sxemalarni o'rganishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ko'rgazma, sxema, metod, dars, to'garak, mustaqil ta'lim, vosita, texnika, ta'rif, tushuncha.

O'quvchilardagi texnologiya fanining ma'lum turiga bo'lgan mayl va qiziqishni o'z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar butun buyumning tuzilishini yaxshi tasavvur etsalargina, ish turi, shakli, hajmi va boshqa xususiyatlar, shuningdek, mehnat qurollari bilan ishlash usullarini tezroq va puxtaroq o'qib oladilar. Ayniqsa 1-sinf o'quvchilari o'qituvchiga taqlid qilishga intiladilar. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarni har bir mehnat turiga aqlan to'g'ri yondashtira olishi va berilgan topshiriqni bajarishda ruhan tayyorlab borishi kerak. Texnologiya fanining metodologik asosi, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, texnologiya fani va tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari hamda boshqa qator muammolari va ularga yangicha yondashuv milliy istiqolol g'oyalari va milliy mafkura asosida yaratilishi muhim. "Milliy istiqolol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" texnologiya fanining metodologik asosi sanaladi. Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu tushuncha texnika taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan – "texnos" – san'at, mahorat, hunar va "logos" – fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" degani. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining o'qitish metodologiyasi: sharq mutafakkirlarining ta'limotlari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi

direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan g'oyalardan iborat. O'zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda texnologiya fani va uning metodologik asoslariga bevosita bog'langan holda har bir pedagog masalaga ijodiy, rivojlanuvchi nuqtayi nazaridan yondashishi zarurdir. Ana shunda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida shakllanayotgan mehnatning yangicha ko'rinishlari-inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi zamonaviy metodlar asos bo'lgandagina haqiqiy, milliy va zamonaviy tarbiyashunoslik faniga aylanishi muqarrar. O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq Respublikada texnologiya fanini tashkil etish sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, uni yuksak darajada takomillashtirish va jahon texnologiya fani darajasiga ko'tarish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Ana shu e'tiborning yorqin isboti ta'lim sohasidagi, jumladan, texnologiya fani sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari hamda texnologiya fanining O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor yo'nalish deb e'lon qilinganligi bilan belgilanadi. O'qituvchi darslarda o'quvchilarga nazariy bilim, ko'nikma hosil qilibgina qolmay, balki amaliy mashg'ulotlarda texnik jihozlardan foydalanishda sxemalarni turlaridan ko'rgazmali qurollar tayyorlab mavzularga tadbiq etishi katta ahamiyatga egadir.

Sxema bu loyihaga oid grafik hujjat bo'lib, unda buyum qismlarining tarkibi va ular orasidagi bog'lanishlar ko'rsatiladi. Buyumlarni loyihalash, sozlash, nazorat qilish, tuzatish va ulardan foydalanish hamda mexanizm, asbob, moslama, inshoot va hokazolarning harakat (ish) jarayonini ketma-ketligi prinsiplari sxemalarda tushuntirib beriladi. Texnologiya fani darslarida o'quvchilarni o'tilayotgan mavzular va uyga berilgan topshiriqlarni mukammal o'rganishlari uchun fanlararo bog'liqlik, o'tilgan mavzularni takrorlash va mustaqil ishlarni qiyinchiliklarsiz bajarishlarini ta'minlash muhimdir. Pedagogik texnologiyalarni fan o'qituvchisi texnologiya darslari mobaynida rivojlanishiga jismonan layoqadli, zehni va aqliy rivojlanishiga ko'ra tanlay olishi muhim hisoblanadi. Shaxsiy xususiyatlarga va kasbiy faoliyatning motivatsion asoslariga esa erkin muloqot yurita olish, ijtimoiy yetuklik, o'z-o'zini nazorat qilish, ishonuvchanlik, mustaqillik, ishonch, muvaffaqiyatga intilish, yutuqqa ehtiyoj, o'z-o'zini baholash kiradi. Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy ishonchini qozona bilish, safarbarlik, o'z mehnatini hisobga olish va odilona baholash, kuzatuvchanlik, qat'iyatlilik, chidam, uddaburonlik, turli xil va murakkab texnikadan foydalana bilish, uzoqni ko'ra bilishlik, tartiblilik, o'quvchilarni bilim olishida qulay sharoit yaratish, tashabbuskorlik, amaliy mehnatga moyillik kiradi. Sxemalarni turlaridan texnologiya fanining mavzularida foydalanishda o'quvchilarni bilim,

ko`nikma va malakalarini mustahkamlash uchun ularni uy vazifalarida va mustaqil ishlarni bajarishlari davomida sxemalarni chizish va nomlarini bilish vazifalari berilsa yanada eslab qolish, xotirasida saqlash uchun zamin bo`ladi. Sxemalarni turlarini o`quvchilar chizib o`rganishida o`quv darsliklarida berilgan ma`lumotlardan tashqari, fan o`qituvchisi qo`shimcha tarqatmali materiallar va ko`rgazmali qurollar uchun sxemalar turlarini ko`proq dars jarayoniga tarqatishi lozim bo`ladi.

XULOSA: Xulosa qilganda, shuni alohida qayd etish lozimki o`quvchilarni texnologiya faniga bo`lgan qiziqishlari, layoqati, ijodiy fikrlashi, tasavvurga ega bo`lishi hamda mustaqil ishlarni bajara olishida turli xildagi mavzularni tezroq o`rganishlari uchun sxemalarni o`rganishi ahamiyatli bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.T.Омонов, Н.Х.Хўжаев, С.А.Мадярова, Э.У.Эшчонов —Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат». Дарслик. Тошкент. «Иқтисод-молия» 2009 йил.
2. Б.Б.Иманов —УРОК КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ». SCIENCE AND WORLD. International scientific journal. Volgograd, 2020.
3. М.Ф.Ҳақимов — Замонавий таълим технологиялари: назария ва амалиёт». Монография. Тошкент. 2018 йил.
4. Ў.О.Тоҳиров — Технология фанини ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар модули бўйича» Ўқув-услубий мажмуа. Тошкент.2018 йил.
5. Ю.К.Бабанский —Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари». Ўқув қўлланма.Тошкент. Ўқитувчи, 1990 йил.
6. Ю.Қирғизбоев, З.Иноғомова, Т. Рихсибоев —Техник чизмачилик курси» Тошкент. Ўқитувчи, 1986 й. Машинасозлик техникуми ўқувчилари учун дарслик.
7. X.A.Қулмаматова —Технология дарсларида схемаладан фойдаланишнинг форма ва методлари». ARES academic research in educational sciences, Scientific Journal Impact Factor. 2021/5.